



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
DAVLAT TEST MARKAZI

REPITISION TEST TOPSHIRUVCHILAR UCHUN

SAVOLLAR KITOBI

ABITURIYENT: _____ F.I.O. _____ Imzo _____

ABITURIYENT DIQQATIGA!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo‘yicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag‘i raqami bir xil bo‘lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma‘lum qiling.

Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to‘ldirilgan yoki to‘ldirilmagan va imzosi qo‘yilmagan hollarda e‘tirozlar ko‘rib chiqilmaydi.

Kitob tipi: **33 (516972)**

FANLAR:

Blok 1: Ona tili va adabiyoti

Blok 2: Biologiya

Blok 3: Kimyo

Savollar kitobi raqami: **1906873**

Toshkent – 2015



ONA TILI VA ADABIYOTI

1. **"Dunyo – kattakon ko'1. Zamona esa esib turgan yel. Oldingdagi to'1qin og'alar bo'lsa, ketindagi to'1qin inilardir. Navbat o'tishar, avvalgiday bo'lishar".** Ushbu hikmatli so'zlar qaysi asarda keltirilgan?
A) *Gulxaniy "Zarbulmasal"*
B) *M.Koshg'ariy "Devonu lug'ot it-turk"*
C) *Navoiy "Mahbub ul-qulub"* D) *Abay "Nasihatlar"*
2. Qaysi javobdagi so'z noto'g'ri yozilgan?
A) *melodramma* B) *tadqiqot* C) *talafot* D) *tatbiq*
3. **Meniki-seniki deb tortishib, necha marta burni qonadi hamki, og'zini tiyolmaydi.** Ushbu gapda tovush o'zgarishlarining soni va turini aniqlang.
A) 4 ta: *tovush almashishi va tovush ortishi*
B) 5 ta: *tovush tushishi*
C) 4 ta: *tovush tushishi*
D) 5 ta: *tovush almashishi va tovush tushishi*
4. **Dadasi har kuni ishga ketishda ham, ishdan qaytishda ham uni qo'liga olar, suyar va yuzlarini, sochlarini silab qo'yar edi.** Ushbu gapda qaysi gap bo'laklari uyushgan?
A) *payt holi, vositasiz to'ldiruvchi, kesim*
B) *payt holi, vositali to'ldiruvchi, kesim*
C) *vositali va vositasiz to'ldiruvchi, kesim*
D) *payt holi, vositasiz to'ldiruvchi, ravish holi*
5. Quyidagi ruboiyda qo'llangan she'riy san'at turini aniqlang. **Ko'z birla qoshing yaxshi, qabog'ing yaxshi, Yuz birla so'zing yaxshi, dudog'ing yaxshi, Eng birla menging yaxshi, saqog'ing yaxshi, Bir-bir ne deyin, boshdin oyog'ing yaxshi.**
A) *talmeh* B) *tanosub* C) *irsoli masal* D) *tajnis*
6. Quyida berilgan gapdagi yasama so'zlar qaysi so'z turkumiga mansubligini aniqlang. **Aqli va bilimdon vazir shunday bo'ladiki, bir to'g'ri tadbir qo'llab g'animni parokanda qilib yubora oladi, murosa-yu madora, xushmuomalalik bilan sipohni birlashtirib, dushman lashkarlarini o'ziga rom qiladi.**
A) *sifat, fe'l, son* B) *sifat, fe'l* C) *ot, fe'l*
D) *sifat, fe'l, ot*
7. Pirimqul Qodirov qalamiga mansub romanlar nomi berilgan javobni aniqlang.
A) *"Olmos kamar", "Uch ildiz"*
B) *"Olmos kamar", "Meros"*
C) *"Yulduzli tunlar", "Qadrim"*
D) *"Yayra institutga kirmoqchi", "Erk"*
8. Orttirma darajadagi yasama sifat qo'llangan gapni aniqlang.
A) *Hamma yoq top-toza.*
B) *Ko'm-ko'k osmonda suzib yurgan paxtadek yumshoq bulutlar yonayotgandek lovullardi.*
C) *Insonning hayot yo'li g'oyat murakkab.*
D) *Ular uchun eng bexatar yo'l Toshkent edi.*
9. Quyida keltirilgan gapdagi bir tovushdan iborat qo'shimchalar sonini aniqlang. **Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega bo'lgan kishilardan bo'lishi lozim: birinchisi – asillik, toza nasillilik; ikkinchisi – aql-farosatlilik, uchinchisi – sipoh-u el ahvolidan xabardorlik, to'rtinchisi – sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik.**
A) 2 B) 3 C) 4 D) 5
10. Tarkibida ham asosi, ham qo'shimchasi shakldosh bo'lgan ikki so'z ishtirok etgan gapni toping.
A) *Sen Mahmud akaning uyi oldida turgin.*
B) *Mozorda yotganlar, nazarimda, so'zlarimni eshitib bezovtalanayotganday edi.*
C) *Biz tomonlarda kuz sho'xligi shumlikka aylanib ketadigan paytlar ham bo'ladi.*
D) *Yaqinlashyapmiz – o'rmon tobora bo'y cho'zyapti.*
11. Qaysi javobda Mirtemirning "Surat" asari janri to'g'ri ko'satilgan?
A) *lirik qissa* B) *dramatik doston* C) *ballada*
D) *lirik hikoya*
12. Shaxs oti yasovchi qo'shimchalar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) *-xon, -chi, -dosh* B) *-lik, -inch, -ch, -dosh*
C) *-gar, -chi, -k, -don* D) *-loq, -choq, -chi, -dosh*
13. Quyidagi berilgan tez aytishlarning qaysi birida ravish ishtirok etmagan?
A) *Erkin ertagi ekin ekishni ertaga ertalab eplaydi.*
B) *O'tkir o'tkir o'roqda o't o'rdi.*
C) *Norning nordon anori narida.*
D) *Hali Vali, Soli sholi o'rdi.*
14. Qaysi javobda "Ravshan" dostoni haqida to'g'ri ma'lumot keltirilgan?
A) *Doston birinchi marta Mahmud Zaripov tomonidan Fozil Yo'ldosh o'g'li og'zidan yozib olingan.*
B) *Doston birinchi marta Hodi Zarif tomonidan Ergash Jumanbulbul o'g'li og'zidan yozib olingan.*
C) *Doston birinchi marta Mahmud Zaripov tomonidan Ergash Jumanbulbul o'g'li og'zidan yozib olingan.*
D) *Doston Hodi Zarif tomonidan Kichik Bo'ron og'zidan yozib olingan.*
15. Qaysi ergashgan qo'shma gapdagi bosh va ergash gap tarkibida ega qo'llangan?
A) *Odamlar siz bilan odatdagidek gaplashishni xohlashmasa, aybni o'zingizdan qidiring.*
B) *Dushman oz deb g'ofil bo'lmaslik kerak, chunki ko'p o'tinni ozgina o't kuydiradi.*
C) *Odarning shunday do'stlari bo'ladiki, ularning har biri bilan fe'lga qarab gaplashishga to'g'ri keladi.*
D) *Har kishi el uchun topsa agar ranj, Oqibat muyassar bo'lar unga ganj.*
16. **Nokas-u nojins avlodin kishi bo'lsun debon, Chekma mehnatkim, latif o'lmas kasofat olami. Kim kuchuk bila xo'dukka necha qilsang tarbiyat, It bo'lur, dog'i eshak, bo'lmaslar aslo odami.** Alisher Navoiyning ushbu misralar bilan yakunlanuvchi she'ri qaysi janrda yozilgan?
A) *qit'a* B) *g'azal* C) *ruboiy* D) *musaddas*
17. **Cho'lquvarlarni na issiq, na suvsizlik yenga oladi, balki ular o'z jasoratlarini, mehnatlari bilan tabiatni zabt etadilar.** Ikkinchi gap tarkibidagi olmosh(lar) birinchi gapdagi qaysi so'z turkum(lar)i o'rnida qo'llangan?
A) *ot, sifat* B) *ot* C) *fe'l* D) *sifat*
18. Qaysi javobda quyida keltirilgan she'riy misralardagi gaplarning egasi to'g'ri ko'rsatilgan?
Bir oqil aytarmish: tingla, qarindosh, Siringni fosh etma, kerak bo'lsa bosh!
A) *oqil, qarindosh* B) *qarindosh, bosh* C) *oqil, bosh*
D) *oqil, qarindosh, bosh*

19. Ilmiy uslubning xususiyatlari haqida berilgan qaysi hukm(lar) to'g'ri?
 1) sof ilmiy uslubda fan yutuqlarini keng ommaga yetkazish maqsad qilinadi;
 2) ilmiy-ommabop uslubda ma'lum fan sohasiga doir atamalar qo'llansa ham, lekin bu atamalar xalqqa tushunarli bo'lishi uchun izohlanadi;
 3) tarix va adabiyotshunoslik uslubi publitsistik uslubga yaqinroq turadi.
 4) ilmiy ommabop uslubda eng yuqori darajadagi mavhumlashtirish orqali ilmiy xulosalarni bayon qilish kuchli bo'ladi.
 A) 1, 2 B) 1, 4 C) 4 D) 2, 3
20. "Suhayl va Guldursun" dostonida Amir Temurning qaysi shaharga qilgan yurishi aks etgan?
 A) Urganchga B) Hirotga C) Balxga D) Buxoroga
21. Vazifadosh ko'makchi qo'llangan gapni aniqlang.
 A) A. Oripovga adabiyot sohasidagi xizmatlari uchun "O'zbekiston xalq shoiri" unvoni berilgan.
 B) Bu ishga qadam qo'yishdan ilgari bir karra sizning oldingizdan o'tib, ra'yingizni bilishga to'g'ri keldi.
 C) Qalam-la men to'qiyman qo'shiq.
 D) Devor usti yomg'irdan iviy boshladi.
22. Quyida keltirilgan misralarda qanday fonetik o'zgarishlar kuzatiladi?
**Ona – u, bag'rida millat beshigi,
 Qalbida yopilmas qadr eshigi,
 Allasi oromdir – hayot qo'shig'i,
 Ayol omon bo'lsa, dunyo go'zaldir.**
 A) tovush ortishi, tovush tushishi
 B) tovush almashishi, tovush tushishi
 C) tovush almashishi, tovush ortishi
 D) tovush almashishi, tovush ortirilishi, tovush tushishi
23. Cho'lponning she'riy to'plamlari nomi berilgan qatorni toping.
 A) "Uyg'onish", "Tong sirlari", "Soz", "Buloqlar"
 B) "Uyg'onish", "Hujum", "Soz", "Adabiyot parchalari"
 C) "Go'zal yozg'ichlar", "Tong sirlari", "Uyg'onish"
 D) "Uyg'onish", "Tong sirlari", "Go'zal yozg'ichlar", "Adabiyot parchalari"
24. "Ravshan" dostoni voqealari haqida berilgan to'g'ri hukmni toping.
 A) Hasanaxon Xon Dallini Vayangandan olib qochib kelib, qiriq kun shohona to'yalar berib, o'z rasm-rusmlari bilan oldi
 B) Hasanaxonni Yunus pari tarbiyalab voyaga yetkazdi
 C) Go'ro'g'li Hasanaxonni Xunxordan olib kelib o'ziga o'g'il qildi
 D) Avaxonga Gulqiz degan barno suluvni kelin qilib tushirib berdilar
25. Quyidagi qaysi so'zning paronimi ikki xil so'z turkumi doirasida omonim bo'la oladi?
 A) oz B) shox C) yod D) boq
26. Berilgan gapdagi tagiga chizilgan so'zda qaysi usulda ma'no ko'chgan?
Onam qoshida tiz cho'kkan, qora qumg'on...
 A) metonimiya B) sinekdoxa C) metafora
 D) vazifadoshlik
27. Muqimiyning masnaviy usulida yozilgan hajviy asarlarini toping.
 1) "Tanobchilar"; 2) "Maskovchi boy ta'rifida"; 3) "Loy"; 4) "Sayohatnoma"; 5) "Vistavka xususida"
 A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2 C) 1, 2, 5 D) 1, 3, 5
28. Jarangli va jarangsizligiga ko'ra bir guruhga kiruvchi undoshlar qatnashgan vazifadosh ko'makchi mavjud bo'lgan gapni aniqlang.
 A) *Tinchlik deb kurashgan ota-bobolarimiz tufayli shu yorug' kunlarga yetib keldik.*
 B) *Temur tig'i yetmagan joyni qalam bilan oldi Alisher.*
 C) *Bitmas-tuganmas bilimning tagida mashaqqatli mehnat yotadi.*
 D) *Barchasidan qovun soz, paykal uzra dumalar.*
29. Sening tug'ilgan shahringdan ayrilib yashashingga ko'zim yetmasdi, buni hammadan ham men yaxshi bilardim.
 Ushbu gapda necha o'rinda bitishuvli so'z birikmasi mavjud?
 A) 5 ta B) 3 ta C) 6 ta D) 4 ta
30. Usta Turdining gapi o'rinli edi // modomiki hamma "qilko'prik" dan o'tar ekan, yo jannatga o'tib ketadi, yo do'zaxga yiqiladi.
 Ushbu gapda // belgisi o'rniga qaysi tinish belgisi qo'yiladi?
 A) tire B) vergul C) ikki nuqta D) nuqtali vergul
31. Quyidagi murakkab qo'shma gap qismlarini bog'lagan vositalarni toping.
Uni tanib olish qiyin edi, chunki yelkalari kengaygandi, qiyofasi ancha keskinlashgandi va katta ko'zlari dumaloq shakl olgan edi.
 A) ergashtiruvchi bog'lovchi, ohang, teng bog'lovchi
 B) ergashtiruvchi bog'lovchi, teng bog'lovchi, bog'lovchi vazifasidagi vosita
 C) ergashtiruvchi bog'lovchi, ohang, bog'lovchi vazifasidagi vosita
 D) ergashtiruvchi bog'lovchi, teng bog'lovchi
32. Har bir baytida ustoz shoirlar nomi keltirilgan "Ustozlar e'tirofi" nomli g'azal muallifi kim?
 A) Komil Xorazmiy B) Avaz O'tar C) Ogahiy
 D) Munis
33. Insonning tarixni yaratuvchi va uni dunyoga keltiruvchi eng oliy xilqat ekanligi rad etib bo'lmaz haqiqatdir.
 Ushbu gapda ega qaysi gap bo'laklariga nisbatan hokim bo'lak hisoblanadi?
 A) 2 o'rinda sifatlovchi aniqlovchiga
 B) 1 o'rinda qaratqich, 2 o'rinda sifatlovchi aniqlovchiga
 C) 1 o'rinda qaratqich, 3 o'rinda sifatlovchi aniqlovchiga
 D) 1 o'rinda qaratqich, 1 o'rinda sifatlovchi aniqlovchiga
34. Qaysi javobda quyida keltirilgan gapda ishtirok etgan fe'l nisbatlari to'g'ri ko'rsatilgan?
Nobel neft va portlovchi moddalar ishlab chiqarishdan orttirgan boyligini nafaqat fizik hamda ximiklarga, balki, vrachlar, adabiyotshunoslar va tinchlikparvarlarga ham berilishini vasiyat qilib ketdi.
 1) aniq nisbat; 2) majhul nisbat; 3) o'zlik nisbat; 4) orttirma nisbat; 5) birgalik nisbat
 A) 1, 4, 5 B) 1, 3, 5 C) 1, 2, 4 D) 1, 3, 4
35. Quyida keltirilgan maqolda nechta fe'l yasovchi qo'shimcha qo'llangan?
**Aqliga aytdim, angladi – bildi,
 Aqlsizga aytdim, shaqillab kuldi.**
 A) 4 ta B) 3 ta C) 1 ta D) 2 ta

36. Y. E. Bertels quyidagi fikrni X asrda qayerda yaratilgan adabiyot haqida yozgan?

"Aslini aytganda, til nuqtayi nazaridan bu davr adabiyotini fors va arab adabiyotiga bo'lish - haqiqatan shartli narsadir"

- A) Samarqandda B) Toshkentda C) Buxoroda
D) Qashqarda

BIOLOGIYA

37. Dissimilatsiya jarayonida glukoza to'liqsiz va to'liq parchalanishi natijasida 10 molekula sut kislotaga va 30 molekula CO_2 hosil bo'ldi. Ushbu jarayonlarda issiqlik sifatida tarqalgan energiya miqdorini (kJ) aniqlang.

- A) 8000 B) 200 C) 7000 D) 15000

38. Reduplikatsiya mahsuloti bo'lgan moddalarni aniqlang.

- 1) Eco RI; 2) RSS 101; 3) Bam HI; 4) pBR-322; 5) Ti;
6) Hae III

- A) 1, 4, 6 B) 2, 4, 5 C) 1, 5, 6 D) 2, 3, 6

39. Itning koker-spaniel zotining genotipidagi A va B genlari birgalikda junning qora rangda bo'lishini ta'minlaydi. Genotipda har ikkala gendan faqat bittasi uchrasa jun rangi malla, dominant genlar bo'lmasa och sariq rangda bo'ladi. Tajribada gomozigota malla itlardan qora rangli avlod olingan. F_1 dagi qora rangli it bilan faqat B geni bo'yicha gomozigota qora it chatishtirilsa olingan avlodning necha foizi F_1 fenotipiga o'xshash bo'ladi?

- A) 25 B) 50 C) 37,5 D) 75

40. Qaysi javobda oddiy bargli o'simliklar yonbargchasi (a) va yonbargchali (b) guruhlariga to'g'ri ajratilgan?

- 1) olma; 2) quyonjun; 3) madaniy tok; 4) beda; 5) saksovul;
6) olcha

- A) a - 2, 5; b - 1, 3, 6 B) a - 1, 2, 6; b - 3, 4, 5
C) a - 2, 3; b - 1, 5, 6 D) a - 1, 2, 5, 6; b - 3, 4

41. Yerbog'ir tugmachagulgula xos bo'lgan xususiyatlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- 1) bir yillik o't; 2) ko'p yillik o't; 3) gulxayridoshlar oilasiga kiradi; 4) gulxayri turkumi vakili; 5) mangoliyatoifa bo'limiga kiradi; 6) oilasining gul formulasi $Gk_{(3)+(5)}Gt_5Ch_{(\infty)}U_{(\infty)}$; 7) oilasining gul formulasi $Gk_5Gt_{(5)}Ch_{\infty}U_{\infty}$; 8) poyasi yonboshlab o'sadi; 9) ildizidan tayyorlangan damlama yo'talga qarshi qo'llaniladi; 10) bargi, guli, urug'idan ichni yumshatuvchi dori tayyorlanadi; 11) gulkosachalari ikki qavatli

- A) 1, 5, 7, 11 B) 2, 4, 7, 9 C) 5, 6, 8, 10
D) 3, 4, 5, 6, 9

42. Korall poliplari ko'payish jarayonining chuchuk suv gidrasi ko'payish jarayoniga o'xshash (a) va farq qiluvchi (b) jihatlarni ko'rsating.

- 1) urug'langan tuxumdan lichinka chiqadi; 2) lichinka suv tubiga yopishib, polip hosil qiladi; 3) polipning kurtaklanib ko'payishi; 4) urug'langan tuxumdan voyaga yetgan organizmga o'xshagan yosh organizm chiqadi

- A) a-2; b-1, 4 B) a-3; b-1, 2 C) a-4; b-2, 3
D) a-2, 3; b-1

43. Retsessiv genlarga ega individlarning markazdan chetga chiqish qonunini birinchi bo'lib aniqlagan olimni toping.

- A) J.Xoldeyn B) Chebaksarov C) N.I.Vavilov
D) I.I.Shmalgauzen

44. Qaysi javobda gomologik organlar to'g'ri ko'rsatilgan?

- 1) kaktusning tikani; 2) burchoqning gajaklari; 3) tokning gajaklari; 4) piyozning seret barglari; 5) aspidistraning ildizpoyasidagi qobiqlar; 6) qirqbo'g'imning sporofili; 7) maymunjonning tikani

- A) 3, 5, 6 B) 1, 2, 7 C) 1, 4, 7 D) 2, 5, 6

45. Qaysi javobda qirg'ovulning kenja turlari berilgan?

- 1) yettisoy; 2) pekin; 3) murg'ob; 4) yapon; 5) ukraina;
6) xiva; 7) manjuriya; 8) yakobin; 9) kornuel; 10) kavkaz

- A) 2, 3, 4, 6, 8, 9 B) 1, 5, 7, 8, 9, 10 C) 1, 3, 5, 7, 8, 9
D) 1, 3, 4, 6, 7, 10

46. Oldingi oyoqlari besh (a), to'rt (b) va uch (c) barmoqli bo'lgan organizmlarni ko'rsating.

- 1) urchuqsimon kaltakesak; 2) povituxa; 3) gaaga; 4) kazuar;
5) kvaksha; 6) gekkon; 7) gaval; 8) emu

- A) a-2, 6; b-5, 7; c-3, 8 B) a-6, 7; b-2, 5; c-4, 8
C) a-1, 6, 8; b-7; c-3, 4 D) a-6, 7; b-3, 4; c-2, 5

47. Qaysi javobda biogen migratsiyaning ikkinchi turida qatnashadigan organizmlar to'g'ri ko'rsatilgan?

- 1) yirtqich hayvonlar; 2) tugunak bakteriyalar; 3) chirituvchi bakteriyalar; 4) baqachanoq; 5) nitrifikatsiyalovchi bakteriyalar; 6) xrokokk; 7) nostok; 8) go'ngxo'r qo'ng'iz;
9) kana; 10) yomg'ir chuvalchangi; 11) o'txo'r hayvonlar

- A) 1, 5, 6, 10, 11 B) 3, 4, 8, 9, 10 C) 1, 8, 9, 10, 11
D) 2, 3, 4, 5, 7

48. Bodring ildiz hujayrasida 14 tadan xromosoma uchraydi.

- Uning a) murtagida; b) tuxum hujayrasida; c) chang donasining vegetativ hujayrasida; d) endosperm hujayrasida nechtadan xromosoma bo'ladi?

- A) a-14; b-7; c-7; d-14 B) a-7; b-7; c-7; d-14
C) a-14; b-14; c-14; d-21 D) a-14; b-7; c-7; d-21

49. Odamdagi qaysi muskullar qovurg'alarning ko'tarilishida ishtirok etadi?

- 1) to'sh-o'mrov so'rg'ichsimon; 2) ichki qovurg'alararo muskul; 3) diafragma; 4) tashqi qovurg'alararo muskul

- A) 1, 3 B) 3, 4 C) 1, 4 D) 1, 2

50. Odamlarda ortiqcha barmoqlilik (polidaktiliya) dominant holda irsiylanadi. Agar erkak genotipi polidaktiliya bo'yicha gomozigota bo'lsa, spermatogenez jarayonida bitta birlamchi jinsiy hujayradan hosil bo'lgan spermatozoidlarning nechtasi shu dominant genga ega bo'ladi?

- A) 2 ta B) 3 ta C) 1 ta D) 4 ta

51. Qaysi javobda motoneyronning quyi (a) va oliy (b) nerv markazlari to'g'ri ko'rsatilgan?

- 1) orqa miya; 2) uzunchoq miya; 3) miyacha; 4) o'rta miya;
5) yarimsharlar po'stlog'ining tepa qismidagi orqa markaziy pushtasi; 6) yarimsharlar po'stlog'ining tepa qismidagi oldingi markaziy pushtasi;

- A) a - 1, 2, 3; b - 5 B) a - 1, 2, 5; b - 6
C) a - 1, 2, 4; b - 6 D) a - 1, 2, 4; b - 5, 3

52. Qaysi javobda ribosomalarda (a) va silliq endoplazmatik to'rdada (b) sintezlanadigan ichki sekretsiya bezlari mahsulotlari to'g'ri juftlab ko'rsatilgan?

- 1) insulin; 2) tripsin; 3) androsteron; 4) miozin;
5) somatotrop; 6) interferon; 7) esterogen; 8) xolesterol

- A) a - 2, 4, 6; b - 1, 5 B) a - 1, 2, 5; b - 3, 7, 8
C) a - 1, 5; b - 3, 7 D) a - 1, 5, 6; b - 3, 8

53. Shimoliy Amerikada qor bo'ronidan so'ng normal qanotli chumchuqlarning yashab qolishi (a), kuchli shamol tez-tez bo'ladigan okean orollarida kalta qanotli hasharotlarning yashab qolishi (b) qanday hodisalarga misol bo'ladi?

- A) a-harakatlantiruvchi tanlanish; b-harakatlantiruvchi tanlanish

- B) a-harakatlantiruvchi tanlanish; b-stabillashtiruvchi tanlanish

- C) a-stabillashtiruvchi tanlanish; b-stabillashtiruvchi tanlanish

- D) a-stabillashtiruvchi tanlanish; b-harakatlantiruvchi tanlanish

54. Mevali daraxtlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) qatrong'i; 2) lipa; 3) do'lana; 4) buk; 5) anor; 6) limon;
7) uchqat; 8) pixta; 9) yapon noki; 10) yapon saforasi;
11) saur
A) 1, 2, 4, 10 B) 6, 7, 8, 9, 11 C) 1, 2, 3, 5, 7
D) 3, 5, 6, 9
55. Dengiz mushugi (a) va tulen (b) bolalari uchun xos xususiyatlar to'g'ri juftlab ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) qishda tug'iladi; 2) terisi oq jun bilan qoplangan; 3) terisi qora jun bilan qoplangan; 4) yoz boshlarida tug'iladi;
5) momiq juni dag'al jun bilan almashgandan so'ng suza boshlaydi; 6) suza boshlagandan so'ng dag'al juni momiq jun bilan almashinadi
A) a-1, 3, 5; b-1, 2, 6 B) a-3, 4, 5; b-2, 4, 6
C) a-3, 4; b-1, 2, 5 D) a-1, 2, 6; b-3, 4, 5
56. Ayirish sistemasi yomg'ir chuvalchangining ayirish sistemasiga o'xshaydigan organizmlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.
A) chirildoq, maxaon, shira, qovoqari
B) podalariy, kulrang satir, tovusko'z, apollon
C) butli o'rgimchak, kana, bo'ka, iskabtopar, maxaon
D) bitiniya, midiya, zaxkash, daryo qisqichbaqasi, lansetnik
57. Tuxumidan lichinka chiquvchi umurtqasiz organizmlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) aktiniya; 2) qandala; 3) triton; 4) exinokokk; 5) suvarak;
6) nereida; 7) sargan; 8) termit; 9) biy
A) 2, 3, 4, 6, 9 B) 2, 4, 5, 6, 7 C) 1, 2, 5, 6, 8
D) 1, 2, 3, 4, 5, 9
58. Kommensalizm munosabatlari to'g'ri berilgan javobni toping.
1) bir xil muhitda o'stirilgan infuzoriyaning ko'payish jadalligiga ko'ra bittasining qolishi; 2) mikoriza; 3) chumoli ichagida bir hujayrali xivchinlining yashashi; 4) baqachanoq mantiya bo'shlig'iga baliqning tuxum qo'yishi; 5) o'simlik va fitofaglar o'rtasidagi munosabat; 6) o'simliklarning fitoaleksin ishlab chiqarishi; 7) odam og'iz bo'shlig'ida og'iz amyobasining yashashi; 8) yirtqich hayvonning o'z o'ljasidan ovqat manbai sifatida foydalanishi; 9) zamburug'larning antibiotik ishlab chiqarishi 10) dukkakli o'simliklar va tugunak bakteriyalarning o'zaro munosabati; 11) mayda baliqlarning yirik baliqlarga yopishib yashashi; 12) lishaynik tanasida suvo'tlar va zamburug'larning o'zaro munosabati
A) 7, 11 B) 1, 5, 8, 9 C) 4, 6 D) 2, 3, 10, 12
59. Qirqquloq va yo'sinlarga xos bo'lmagan belgilarni aniqlang.
1) o'sishida yorug'likning ahamiyati yo'q; 2) sporadan jinsiy bo'g'in boshlanadi; 3) sporalari sporangiyda yetiladi;
4) biogen migratsiyaning birinchi turida ishtirok etadi.
A) 1, 3 B) 2, 4 C) 1, 4 D) 2, 3
60. Toron, qo'ziquloq hujayralarining mexanik ta'sirlarga nisbatan mustahkamligini ta'minlaydigan xususiyatni aniqlang.
A) turgorlik B) buferlik C) plazmoliz
D) transpiratsiya
61. Qaysi javobda magnoliyasimonlar uchun xos xususiyatlar to'g'ri ko'rsatilgan?
1) gulqo'rg'on bo'laklari halqada 4-5 tadan o'rnashgan;
2) poyasi kambyli, yo'g'onlasha oladi; 3) murtak ildizhasidan hosil bo'lgan ildizi tez nobud bo'ladi; 4) barg yaprog'i patsimon yoki panjasimon tomirlangan; 5) bargi yoysimon yoki parallel tomirlangan; 6) gulqo'rg'oni murakkab yoki oddiy; 7) unayotgan o'simlik urug'pallabargi yer ostida qoladi
A) 3, 5, 7 B) 1, 2, 3, 4 C) 1, 4, 6 D) 1, 5, 6
62. DNK molekulasida adenin va timin orasida ikkita, guanin va sitozin orasida uchta vodород bog' bor, qo'shni nukleotidlar orasi 0,34 nm ga teng. Ma'lum DNK bo'lagida 1050 ta vodород bog' bo'lib, shundan 60% guanin va sitozin orasida bo'lsa, shu DNK bo'lagidagi nukleotidlarning jami sonini toping.
A) 420 B) 410 C) 820 D) 840
63. Juft tuyuqli kavsh qaytaruvchi hayvonlarni belgilang.
1) karkidon; 2) qulon; 3) begemot; 4) zubr; 5) bug'u;
6) tapir; 7) sayg'oq; 8) arxar; 9) to'ng'iz.
A) 1, 2, 6, 9 B) 3, 6, 7, 9 C) 4, 6, 7, 8 D) 4, 5, 7, 8
64. Destruktor organizmlarni toping.
1) kalina; 2) kaltakesak; 3) lyupin; 4) sichqon; 5) detritofag;
6) quyon; 7) bakteriofag; 8) pnevmokokk; 9) chirituvchi bakteriya; 10) fitoplankton; 11) ayrim zamburug'lar
A) 2, 5, 6 B) 5, 7, 8, 11 C) 5, 9, 11 D) 1, 3, 4, 10
65. Qaysi javobda sistematik birliklar to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirilgan?
1) xordalilar; 2) qunduzsimon yerqazar; 3) boshskeletsizlar;
4) hasharotxo'rlar; 5) sutemizuvchilar; 6) kemiruvchilar
A) 2, 6, 5, 1 B) 1, 3, 5, 4, 2 C) 4, 5, 3, 1 D) 2, 4, 5, 1
66. Qaysi javobda erkak asalariga mos keluvchi belgilar to'g'ri ko'rsatilgan?
1) nishtari bor; 2) nishtari yo'q; 3) ishchilarga nisbatan yirik;
4) ishchilarga nisbatan kichik; 5) mo'ylovi rivojlangan;
6) ko'zi yaxshi rivojlanmagan; 7) orqa oyog'idagi savatchada gul changini yig'adi; 8) og'zi kemiruvchi-so'ruvchi; 9) og'iz organi yaxshi rivojlanmagan; 10) mumdan katak yasaydi;
11) partenogenez usulida rivojlanadi; 12) urug'lanmagan tuxum hujayradan rivojlanadi
A) 2, 4, 6, 8, 12 B) 1, 7, 8, 10, 11 C) 3, 6, 9, 12
D) 3, 5, 9, 11
67. Qaysi javobda filogenezini faqat embrional davrda takrorlaydigan hayvonlar to'g'ri keltirilgan?
1) gatteriya; 2) qurbaqa; 3) chigirtka; 4) yomg'ir chuvalchangi; 5) jigar qurti; 6) nereida; 7) podalariy;
8) opossom; 9) shinshilla; 10) burga
A) 3, 4, 6 B) 5, 6, 7, 10 C) 1, 8, 9 D) 2, 5, 7, 9
68. Qaysi javobda zaharsiz organizmlar to'g'ri ko'rsatilgan?
1) belyanka; 2) gelikonius; 3) korall aspidi; 4) ko'rgalak;
5) Amerika suviloni; 6) qalqontumshuq; 7) tikandum skat;
8) oynasimon kapalak
A) 1, 4, 5, 8 B) 5, 6, 7, 8 C) 1, 2, 3, 5 D) 2, 5, 6, 7
69. Qonining plazmasi tarkibida antigemofil omil, antitana, vitaminlar, gormonlar, uglevod, yog', tuz, agglyutinini β , eritrotsitlarida esa rezus omil, gemoglobin, agglyutinogen A mavjud bo'lgan odam qaysi qon guruhlar uchun retsipiyent hisoblanadi?
A) I, III B) I, II C) III, IV D) II, IV
70. Qonda γ -globulin sintezlanmasligi oqibatida bolalarda immunitet yetishmasligi vujudga keladi. Bu kasallik agammaglobulinemiya deb nomlanadi. Ushbu kasallikni keltirib chiqaruvchi genning bir turi autosomada, ikkinchi turi jinsiy X-xromosomada joylashgan. Kasallik belgisi ikkala holda ham retsessiv irsiylanadi. Ona ikki belgi bo'yicha geterozigotali, ota sog'lom va uning qarindoshlarida kasallik kuzatilmagan bo'lsa, o'g'il bolalarning necha foizi fenotip bo'yicha sog' bo'ladi?
A) 50 B) 100 C) 75 D) 25

71. Ma'lum bir navli piyoz o'simligida piyozboshning qizil rangi sariq rangga nisbatan ustunlik qiladi, lekin ikkinchi juft noallel genning retsessiv alleli rang ta'sirini bo'g'ib, oq rangni yuzaga chiqaradi. Qizil va sariq piyozboshli o'simliklar chatishtirilganda sariq, oq va qizil piyozboshli o'simliklar hosil bo'lgani ma'lum bo'lsa, avlodning necha foizi oq piyozboshga ega bo'ladi?
A) 37,5% B) 12,5% C) 25% D) 50%

72. Odam ko'z soqqasi ichida qaysi muskullar joylashgan?
1) ko'z soqqasini harakatlantiruvchi muskullar; 2) gavhar atrofidagi kipriksimon muskullar; 3) qorachiq atrofidagi to'g'ri yo'nalgan muskullar; 4) qorachiq atrofidagi aylana muskullar; 5) gavhar atrofidagi aylana va to'g'ri yo'nalgan muskullar.
A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 4 C) 1, 4, 5 D) 3, 4, 5

KIMYO

73. Reaksiya to'liq borishi uchun yetarli miqdorda olingan to'yingan ikki atomli spirt KBr va H_2SO_4 aralashmasi bilan qizdirildi. Ushbu reaksiyadan hosil bo'lgan 1,88 g organik birikma KOH ning spirtli eritmasi bilan qizdirilganda 224 ml (n.sh.) gaz hosil bo'ldi. Olingan gaz kumush oksidining ammiakdagi eritmasidan o'tkazilganda hosil bo'lgan cho'kma massasini (g) aniqlang. Oxirgi reaksiyaning unumi 72% ga teng.
A) 2,09 B) 1,64 C) 1,73 D) 2,12

74. Qaysi javobda havodan yengil bo'lgan gazlar ko'rsatilgan?
A) vodorod, azot, etilen, ftor
B) vodorod, is gazi, ammiak, atsetilen
C) azot, is gazi, vodorod, azot (II) oksidi
D) vodorod, etilen, ammiak, etan

75. Yog'ning to'la yonishi uchun 48,32 g kislorod sarf bo'ldi. Bunda 1,02 mol suv va 1,06 mol karbonat angidrid gazi hosil bo'ldi. Yog'ning molyar massasini (g/mol) aniqlang.
A) 862 B) 890 C) 834 D) 806

76. Uglevodorod bromlanganda ($D(O_2)=5,094$) bromli hosila olindi. Uglevodorodni aniqlang.
A) Siklogeksan B) Siklopentan C) Siklopropan
D) Siklobutan

77. 0,2% li $NaOH$ ning 500 g eritmasi 96500 sekund davomida elektroliz qilinganda eritmaning pH qiymati 13 ga teng bo'ldi ($\rho=1,928$ g/ml). Eritmadan o'tgan tok kuchini (A) aniqlang.
A) 4 B) 2 C) 5 D) 9

78. Ammoniy fosfat dissotsialanishidan hosil bo'lgan anionlar soni, dissotsialanmagan molekularning atomlar soniga teng bo'lsa, dissotsialanish darajasini (α) toping.
A) 90 B) 95 C) 83 D) 87

79. Tabiiy gazning asosini qaysi uglevodorod tashkil etadi?
A) metan B) benzol C) atsetilen D) metanol

80. 2,7,7,8-tetrametil-5,6-dietilnonadiyen-2,3 molekulasidagi sp (a), sp^3 (b), sp^2 (c) orbitalar, σ -bog'lar (d) va molekula hosil bo'lishida ishtirok etgan orbitalar sonini (e) toping.
A) a-2; b-56; c-6; d-48; e-100 B) a-2; b-6; c-48; d-42; e-96
C) a-2; b-48; c-6; d-42; e-96 D) a-2; b-6; c-56; d-48; e-100

81. Tarkibida qo'shimcha sifatida 10,48% $BaCO_3$ bo'lgan bariy oksidi 6M li nitrat kislota bilan ta'sirlashdi. Bunda 1,12 l (n.sh.) gaz ajraldi. Dastlabki aralashmadan qanday massada (g) olinganligini hamda sarflangan nitrat kislota eritmasining hajmini (ml) aniqlang.
A) 94; 200 B) 78; 300 C) 47; 150 D) 141; 250

82. 20 g mis, temir va rux aralashmasiga mo'l miqdordagi xlorid kislota eritmasi ta'sir ettirilganda 0,2 mol gaz ajraldi. Xuddi shuncha miqdordagi aralashmaga mo'l miqdordagi o'yuvchi kaliy ta'sir ettirilganda 0,1 mol gaz ajraldi. Boshlang'ish aralashmadagi metallarning massa ulushlarini (%) toping.
A) 22,2; 37,8; 40 B) 39,5; 28; 32,5 C) 20; 30; 50
D) 19,2; 20,8; 60

83. Sxemadagi barcha noma'lum moddalar tarkibida xrom borligi ma'lum bo'lsa, A, C va F moddalarni aniqlang.
$$Cr \xrightarrow{HCl} A \xrightarrow{KOH} B \xrightarrow{H_2O_2} C \xrightarrow{Br_2, KOH} D \xrightarrow{H_2SO_4} E \xrightarrow{H_2SO_4, K_2SO_3} F$$

1) $CrCl_2$; 2) $CrCl_3$; 3) $Cr(OH)_2$; 4) $Cr(OH)_3$;
5) $K_2Cr_2O_7$; 6) K_2CrO_4 ; 7) $CrSO_4$; 8) $Cr_2(SO_4)_3$
A) 1, 4, 8 B) 2, 3, 5 C) 4, 6, 7 D) 2, 6, 7

84. Tarkibida H ning massa ulushi 10,34% bo'lgan bir asosli to'yingan karbon kislota tarkibidagi kislorodning massa ulushini (%) va uning 1 mol butil efridagi uglerod atomlari sonini toping.
A) 72,38; 36,12·10²³ B) 27,62; 6,02·10²⁴
C) 72,38; 6,02·10²⁴ D) 27,62; 6,02·10²³

85. 0,5 mol natriy benzoat 0,3 mol $NaOH$ bilan qizdirilganda hosil bo'lgan benzoldan kumol olish uchun qanday massadagi (g) 2-brompropan kerak?
A) 3,9 B) 6,15 C) 36,9 D) 23,4

86. 0,24 kg suvda LiH va KH aralashmasi eritilishi natijasida 8,32% li ishqor eritmasi hosil bo'ldi va eritma massasi dastlabki umumiy massaga nisbatan 1,2 grammga kamaydi. Boshlang'ich aralashmaning massasini (g) aniqlang.
A) 20,8 B) 10,8 C) 11,2 D) 14,4

87. Zaryadsiz nuklonlar soni bir xil bo'lgan azot va ammiakdan iborat gazlar aralashmasidagi ammiakning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 55 B) 33 C) 45 D) 67

88. Tarkibida 3 ta sp^2 orbital mavjud bo'lgan modda(lar)ni aniqlang.
A) SO_2 B) BH_3 C) SO_3 va SO_2 D) SO_3

89. Noma'lum elementning bromidi va bromatining molyar massalari nisbati 1:1,403 ga teng. Noma'lum elementni aniqlang.
A) Fe B) Mg C) Sr D) K

90. Fe^{2+} ioniga sifat reaksiyasida (OH^- ion bilan) qanday rangli cho'kma tushadi?
A) oq B) qo'ng'ir C) och yashil D) ko'k

91. 25 g H_2SO_4 75 g suvda eritilishidan hosil bo'lgan eritmaning konsentratsiyasini (%) aniqlang.
A) 75 B) 25 C) 60 D) 40

92. Vodorod va kislorod atomlari sonlari nisbati 2,5:2 bo'lgan ($\rho=1,25$ g/ml) sulfat kislota eritmasidan tarkibida 1 mol sulfat kislota 0,3 mol oltingugurt (VI) oksid to'g'ri keladigan 488 g oleum olingan bo'lsa, dastlabki sulfat kislota eritmasidagi kislorodning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 45,4 B) 70,3 C) 75,3 D) 94,1

93. ^{208}Pb va ^{70}Zn yadrolarining to'qnashishi oqibatida 1 ta neytron va noma'lum element yadrosi hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan yadro tarkibidagi musbat nuklonlar sonini toping.
A) 113 B) 166 C) 112 D) 165

94. Benzilformiat molekulasidagi uglerodning massa ulushini va o'rtacha oksidlanish darajasini aniqlang.
A) 64,0; -0,67 B) 72,0; -0,67 C) 68,9; -0,3
D) 70,6; -0,5

95. 0,6 l ($P=83,2$ kPa, $t=360$ K) hajmdagi noma'lum modda bug'ining massasi 1,3 g ga teng. Moddaning havoga nisbatan zichligini aniqlang.
A) 2,29 B) 2,78 C) 2,44 D) 2,68
96. CO_2 va $H_2O_{(g)}$ ning hosil bo'lish issiqliklari mos ravishda 393,5 va 241,8 kJ/mol ga teng. C_2H_4 ning hosil bo'lish issiqligini (kJ/mol) toping. (67,2 l (n.sh.) etilen gazi yonishidan 3969 kJ issiqlik ajraladi.)
A) 269,1 B) -104,8 C) 179,4 D) -52,4
97. Kalsiy ionining elektron konfiguratsiyasi quyidagi qaysi zarrachaning elektron konfiguratsiyasi bilan bir xil?
A) magniy ionini B) kaliy atomi C) argon atomi D) brom ionini
98. CH_4 1500°C da qizdirilganda C_2H_2 hosil qiladi. Agar olingan gazlar aralashmasida hajm jihatdan 45% vodorod mavjud bo'lsa, reaksiya unumini (%) toping.
A) 26,64 B) 66,72 C) 40,04 D) 42,86
99. Argonga nisbatan zichligi 1,33 ga teng bo'lgan 8 mol oltingugurt (IV) oksid va azot (IV) oksid aralashmasi 4 l hajmli idishda o'zaro ta'sirlashdi. Agar azot (IV) oksidning 40%i sarflangan bo'lsa, muvozanat konstantasini toping. (Reaksiyada SO_3 va NO hosil bo'ladi)
A) 0,24 B) 0,12 C) 1,0 D) 0,5
100. Massasi 80 g $NaCl$, $CaCO_3$ va ZnS aralashmasi ortiqcha xlorid kislotasi bilan ta'sirlashganda 0,6 mol gazlar aralashmasi hosil bo'ldi. Ushbu gazlar SO_2 bilan ta'sirlashganda 19,2 g qattiq modda olindi. Dastlabki aralashmadagi moddalarning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 26,5; 25; 48,5 B) 15,5; 35,5; 49 C) 20; 50; 30 D) 45; 10,5; 45,5
101. Metil formiat bilan 0,25 mol ammiak ta'sirlashganida necha gramm spirt hosil bo'ladi?
A) 11,5 B) 8 C) 16 D) 23
102. Oqsil molekulasida bir atom oltingugurt bo'lib, uning massa ulushi 0,32% ni tashkil etsa, oqsilning molekulyar massasini toping.
A) 100 B) 1000 C) 100000 D) 10000
103. Quyida bir necha elementlarning nisbiy elektromanfiylik qiymati keltirilgan.
Na(1,01), K(0,91), H(2,1), Br(2,87), C(2,5), S(2,6)
Oltingugurtning qaysi element bilan hosil qilgan kimyoviy bog'ida bog' qutbliligi yuqoriroq?
A) natriy B) vodorod C) kaliy D) uglerod
104. Quyida tartib nomeri berilgan elementlarning ionlanish-potensial qanday o'zgaradi?
 $16 \xrightarrow{1} 17 \xrightarrow{2} 9 \xrightarrow{3} 7$
a) ortadi; b) kamayadi
A) 1 a; 2 b; 3 b B) 1 b; 2 b; 3 a C) 1 b; 2 a; 3 a D) 1 a; 2 a; 3 b
105. 1 mol noma'lum organik modda $KMnO_4$ ning suvli eritmasi bilan oksidlanganda 46 g K_2CO_3 , 66,7 g $KHCO_3$, 116 g MnO_2 va suv hosil bo'ldi. Qaysi modda oksidlanganligini aniqlang.
A) CH_3CHO B) CH_3OH C) $HCOOH$ D) $HCHO$
106. Formaldegiddagi uglerod atomining valentligi va oksidlanish darajasini belgilang.
A) 2; +2 B) 4; +2 C) 4; 0 D) 4; +4
107. Tarkibida allotropik shakl o'zgarishli elementlar bo'lgan moddalarni toping.
1) HNO_3 ; 2) KBr ; 3) FeS_2 ; 4) LiF ; 5) CH_4 ; 6) N_2H_4 ; 7) $SnCl_4$; 8) Fr_2Se
A) 3, 5, 6, 7, 8 B) 1, 3, 5, 7, 8 C) 1, 3, 4, 6, 8 D) 2, 4, 5, 7
108. Natriy karbonat kristallogidrat va kaliy karbonat 9,28:5,52 massa nisbatda aralashtirildi. Aralashma yetarli miqdordagi suvda eritilganda natriy va kaliy ionlari molyar konsentratsiyalari teng bo'lgan eritma olindi. Kristallogidrat tarkibini aniqlang.
A) $Na_2CO_3 \cdot 7H_2O$ B) $Na_2CO_3 \cdot 8H_2O$
C) $Na_2CO_3 \cdot 12H_2O$ D) $Na_2CO_3 \cdot 10H_2O$